

## Energetika ko'rgazmasiga tashrif

Joriy yilning 15-17 may kunlari Toshkent shahridagi O'ZEKSPOMARKAZda "Power Uzbekistan-2019" va "OGU-2019" nomi bilan energetika va neft-gaz sohalari bo'yicha xalqaro ko'rgazmalar o'tkazildi. "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" fakulteti "Elektr energetikasi" yo'nalishi 2 bosqich talabaları «ETvaQTEM» kafedrası a'zolari dots. O.J. Pirimov, assistantlar A.Sanbetova va O.Qilichovlar boshchiligidə 16 may kuni Toshkent shahridagi O'ZEKSPOMARKAZda tashkil etilgan ENERGETIKA ko'rgazmasiga qatnashdilar. Ko'rgazmada zamonaviy elektron qurilmalar, yangi yaratilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, mobil elektr stansiyalar va ulardagi innovatsion texnologiyalar namoyish etildi. Talabalar sohaga doir qiziqarli va zarur ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



"Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti Ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovini  
Sh.O.Berdiyev axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov